

## INKLYUZIV TA'LIMDA TALABALARNING O'Z-O'ZINI PERSONALLASHTIRISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi,

NamDU mustaqil tadqiqotchi

**Annotatsiya.** Maqolada inklyuziv muhitda tahsil olayotgan talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini rivojlantiruvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning ta'sir mexanizmlarini tadqiq etish va personallashtirishni optimallashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** talaba, personallashtirish, jarayon, o'rganish, ta'lim, psixologiya, xizmat, sifat, individuallik, pedagog, inklyuzivlik, inklyuziya, innovatsiya, shaxs, rivojlantirish.

**Аннотация.** В статье представлены научно обоснованные предложения по выявлению психологических факторов, способствующих процессу самореализации студентов, обучающихся в инклюзивной среде, исследованию механизмов их влияния и оптимизации персонализации.

**Ключевые слова:** студент, персонализация, процесс, обучение, воспитательная работа, психология, услуга, качество, индивидуальность, педагог, инклюзия, включение в процесс, инновации, личность, развитие.

**Annotation.** The article presents scientifically based proposals for identifying psychological factors that promote the process of self-personalization of students studying in an inclusive environment, researching their mechanisms of influence and optimizing personalization.

**Key words:** student, personalization, process, learning, education, psychology, service, quality, individuality, educator, inclusion, inclusion, innovation, personality, development.

**Kirish.** Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi barcha ta'lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, insonning shaxsiy va ijtimoiy potensialini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan gumanistik tamoyillar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda. Bu jarayonda inklyuziv ta'lim konsepsiyasi ustuvor ahamiyat kasb etib, turli individual ehtiyojlarga ega bo'lgan talabalarning birgalikda o'qishi, ularning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy kamol topishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yondashuvni nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim jarayonini tashkil etishning yangi modelini, balki talabalarning shaxsiy rivojlanish mexanizmlarini, ayniqsa o'z-o'zini personallashtirishni chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Talabaning o'z-o'zini personallashtirishi - bu uning turli ijtimoiy-farqli muhitlarda o'z o'rnini, rolini, qobiliyatlarini, individual psixologik xususiyatlarini anglab borishi, o'zini subyektiv qiymatga ega shaxs sifatida shakllantirish jarayonidir. Inklyuziv muhitda ushbu jarayon yanada murakkab va ko'p qirrali tus oladi. Chunki ta'lim oluvchilarning individual farqlari, jismoniy yoki psixologik cheklovlari, ishtirok va kommunikatsiya imkoniyatlari, emotsional barqarorlik darajalari bu jarayonning dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, inklyuziv ta'lim sharoitida o'z-o'zini personallashtirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash, ularni ilmiy asosda tahlil qilish va rivojlantirish

strategiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda psixologiya va pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirishda faqat metodik yoki tashkiliy o'zgarishlar kifoya qilmaydi; talabalarning psixik rivojlanishi, ayniqsa o'z-o'zini personallashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi psixologik mexanizmlarni ilmiy asosda yaratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv muhitda o'z-o'zini personallashtirgan talabalar yuqori motivatsiyaga, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga, emotsional barqarorlikka va ijtimoiy moslashishning yuqori darajasiga ega bo'ladi. Bu esa ularning kelgusi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida asosiy omil hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini o'rganish ta'lim muassasalarida psixologik xizmat sifatini oshirish, individual ta'lim dasturlarini tuzish, pedagoglarning inklyuziv kompetensiyalarini rivojlantirish va talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishga hissa qo'shadi [1].

So'nggi o'n yilliklarda jahon ta'lim tizimlarida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar inson huquqlari, teng imkoniyatlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga tayangan holda jadallashdi. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi barcha talabalarning, jumladan, imkoniyati cheklangan yoki turli individual-psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslarning ta'limga teng huquqini ta'minlaydigan pedagogik va psixologik muhitni yaratishni nazarda tutadi. Bunday muhitda ta'lim oluvchining subyekt sifatida o'zining shaxsiy, ijtimoiy, kognitiv va emotsional imkoniyatlarini anglashi va ularni rivojlantirishi muhim masala hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limning markaziy kategoriyalaridan biri - talabaning o'z-o'zini personallashtirish jarayonidir. Personallashtirish shaxsning o'zini unikal individuum sifatida qabul qilishi, o'z qobiliyatlarini anglashi, o'ziga nisbatan ijobiy "Men-konsepsiya" yaratishi va ijtimoiy muhitda o'z rolini mustaqil belgilay olishini o'z ichiga oladi. Bunday jarayonning samarali kechishi talaba uchun shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy adaptatsiya va kasbiy yo'nalishni to'g'ri tanlash kabi muhim psixik funksiyalarni shakllantiradi [14].

Biroq inklyuziv muhitda personallashtirish jarayoni bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq: ijtimoiy stereotiplar, kommunikatsiya to'siqlari, past o'ziga baholash, psixologik qo'llab-quvvatlash yetishmasligi, adaptatsiya jarayonlarining sekinligi va o'zaro munosabatlar tizimining noteksligi. Shu sababli inklyuziv ta'limda personallashtirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash, uni rivojlantirish strategiyalarini ilmiy asoslash zamonaviy psixologiya va pedagogika fanining muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

**Metodlar.** Inklyuziv ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini rivojlantirish qator psixologik omillar bilan belgilanadi. Ular qatoriga motivatsiyaning ichki va tashqi manbalari, "Men-konsepsiya"ning barqarorligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, o'qitish uslublari va pedagogning psixologik kompetentligi, ta'lim muhitining

xavfsiz va bandlik hissini ta'minlashi, empatiya va tolerantlik kabi shaxsiy sifatlarning shakllanishi kiradi. Bu omillarning har biri talaba shaxsining individual rivojlanish trayektoriyasiga ta'sir etib, uning o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, qobiliyatlarni baholash, kelajak maqsadlarini belgilash kabi muhim psixologik ko'nikmalarini tarkib toptiradi.

Inklyuziv ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, metodologik asos sifatida psixologiya, pedagogika, inklyuziv ta'lim nazariyasi va shaxs rivojlanishi konsepsiyalarining o'zaro uyg'unlashgan tizimi qo'llanildi:

Tarixiy-mantiqiy tahlil. Inklyuziv ta'limning paydo bo'lishi, rivojlanishi va shaxsning personallashtirish jarayoniga doir nazariy qarashlar tarixi o'rganildi. Shaxsning rivojlanishiga oid gumanistik psixologiya (A.X. Maslou [6], K.R.Rojers [9]), ijtimoiy-konstruktivizm (L.S.Vigotskiy [4]), identifikatsiya nazariyalari (E.Erikson [13]) tahlil etildi. Taqqoslash va qiyoslash metodi. Talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayoni turli pedagogik modellar (inklyuziv, integrativ, traditsion) bilan solishtirilib, inklyuziv muhitdagi o'ziga xos psixologik xususiyatlar ajratib ko'rsatildi [2].

Sistemali yondashuv. Personallashtirish jarayoni biopsixologik, kognitiv, ijtimoiy va emotsional omillarni qamrab olgan ko'p omilli sistema sifatida tahlil qilindi [11].

Strukturaviy-tahliliy metod. Personallashtirishning psixologik tuzilmasi (Men-konsepsiya, identifikatsiya, motivatsiya, emotsional barqarorlik, ijtimoiy moslashuv) nazariy jihatdan asoslandi [12].

Shu bilan birga, inklyuziv muhitda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonida salbiy ta'sir ko'rsatuvchi bir qator qiyinchiliklar ham mavjud: ijtimoiy izolyatsiyaga moyillik, o'zini qo'shimcha ehtiyotga muhtoj deb qabul qilish, past o'ziga baholash, akkomodatsiya jarayonlarining yetarlicha rivojlanmaganligi, o'quv jamoasidagi munosabatlar muammolari va emotsional stress holatlari. Bunday muammolarni bartaraf etishda psixologik xizmatning tizimli harakati, pedagogning inklyuziv kompetentligi, otionalarning konstruktiv munosabati hamda talabaning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega.

**Natijalar.** Inklyuziv muhitda talaba shaxsi rivojlanishining asosiy mezoni faqat akademik yutuqlar emas, balki uning o'zini shaxs sifatida qabul qilishi, o'z rolini anglashi va mustaqil rivojlanishini ta'minlaydigan ichki mexanizmlardir.

Personallashtirish quyidagi to'rt asosiy psixologik komponentlardan tashkil topadi [2, 3, 7]:

- kognitiv komponent - o'z qobiliyatlarini anglash, shaxsiy imkoniyatlarni baholash;
- emotsional komponent - o'ziga ishonch, emotsional barqarorlik, o'zini qabul qilish;
- ijtimoiy komponent - jamoaga mansublik hissi, ijtimoiy rollarni o'zlashtirish;

➤ motivatsion komponent - shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ichki ehtiyoj, maqsad qo'yish va harakatlanish.

Inklyuziv muhitda mazkur komponentlar bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Inklyuziv ta'limda: pedagogik qo'llab-quvvatlash, tengdoshlar bilan ijobiy munosabat, ota-onalar ko'magi, ta'lim muassasasining inklyuziv madaniyati talabning identifikatsiya va o'zini qabul qilish jarayonini tezlashtiradi [5].

Inklyuziv muhitda emotsional stress, ijtimoiy izolyatsiya xavfi, o'z-o'zini qadrlash muammolari ko'proq uchraydi. Nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt va stressni boshqarish ko'nikmalari personallashtirishni rag'batlantiruvchi asosiy psixik mexanizmdir.

Personallashtirish jarayoni pedagogning:

- tolerantlik darajasi,
- psixologik savodxonligi,
- differensial yondashuv qo'llay olish qobiliyati,
- empatiyasi
- bilan chambarchas bog'liq ekanini nazariy jihatdan asoslandi.

**Muhokama.** Inklyuziv ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayoni bir qator psixologik omillar bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi. E'tiborga molik jihatlardan biri - personallashtirish darajasi eng ko'p ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bog'liq ekanidir. Inklyuziv muhitda talaba o'zini qabul qilingan, hurmat qilingan va qo'llab-quvvatlangan deb his qilganda, u o'z shaxsiy rolini, qobiliyatlarini va identifikatsiyasini tezroq shakllantiradi.

Emotsional barqarorlik va "Men-konsepsiya" o'rtasidagi bog'liqlik shaxsning emotsional holati uning shaxsiy rivojlanish jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Emotsional stress, qo'rquv, ijtimoiy izolyatsiya kabi omillar personallashtirishni sekinlashtiradi [8].

Inklyuziv muhitda personallashtirish jarayoni faqat shaxsiy omillarga emas, balki ta'lim muassasasi tomonidan yaratilgan psixologik muhitga ham bevosita bog'liq. Pedagoglarning inklyuziv kompetentligi, guruhdagi ijtimoiy munosabatlar, psixologik xizmatlar samaradorligi - bularning barchasi o'ta muhim. Inklyuziv ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayoni umumpsixologik rivojlanish qonuniyatlariga to'la mos kelsa-da, o'ziga xos qator xususiyatlarga ham ega [10].

Inklyuziv muhit o'z tabiatidan kelib chiqib, Maslou ta'kidlagan ehtiyojlar iyerarxiyasining yuqori bosqichlarini qondirish uchun sharoit yaratadi. Xususan:

- o'zini ro'yobga chiqarish,
- shaxsiy rivojlanish,
- ijtimoiy mansublik

ehtiyojlari inklyuziv muhitda tezroq namoyon bo'ladi.

Personallashtirish ijtimoiy tajriba bilan bog‘liq jarayon bo‘lgani uchun, inklyuziv muhitning ijtimoiy-emotsional tuzilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pozitiv jamoa munosabatlari shaxsning identifikatsiya jarayonini rag‘batlantiradi.

Inklyuziv ta‘lim “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiradi. Talabalar o‘zaro hamkorlik orqali: o‘z qobiliyatlarini anglaydi, ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi, shaxsiy maqsadlar quradi. Yuqoridagi fikrlar natijasida inklyuziv ta‘lim uchun quyidagi omillar shakllantirildi:

Ichki omillar - Men-konsepsiya, motivatsiya, emotsional intellekt

Tashqi omillar - pedagogik qo‘llab-quvvatlash, jamoa munosabatlari

Rivojlantiruvchi mexanizmlar - refleksiya, identifikatsiya, internalizatsiya

Rivojlanish natijalari - shaxsiy mustaqillik, ijtimoiy adaptatsiya, kasbiy yo‘nalish

**Xulosa.** Inklyuziv ta‘limda talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayoni quyidagi yo‘nalishlarda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi:

Inklyuziv muhit talabada o‘z-o‘ziga ishonch, identifikatsiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish kabi muhim psixologik sifatlarni shakllantiradi.

Personallashtirish ko‘p omilli va dinamik jarayon bo‘lib, u motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liq tizimidan iborat.

Inklyuziv muhitda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional intellekt personallashtirishning asosiy regulyativ mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Emotsional barqarorlik va stressni boshqarish inklyuziv muhitda talaba rivojlanishi uchun muhimdir.

Pedagogning inklyuziv kompetentligi personallashtirish jarayonini tezlashtiradi. Inklyuziv ta‘limda talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayoni ko‘p qirrali va kompleks mexanizmlardan iborat ekanini ko‘rsatdi. Personallashtirishning muvaffaqiyatli kechishi quyidagi omillarga bog‘liq:

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yuqori darajasi

Emotsional barqarorlik va stressni boshqarish ko‘nikmalari

Pozitiv “Men-konsepsiya” va o‘ziga ishonch

Pedagogning inklyuziv kompetentligi

Inklyuziv muhitning xavfsiz va qabul qiluvchan bo‘lishi

Umuman, inklyuziv ta‘limda personallashtirish jarayonini rivojlantirish talaba shaxsining barkamol rivojlanishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashi va kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim psixologik asos yaratadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Асеев, В.Г. Психология мотивации поведения. — М.: Наука, 2016. - 240 с.
2. Божович, Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. — М.: Педагогика, 2018. — 350 с.
3. Бандура, А. Теория социального научения. — СПб.: Евразия, 2016. - 296 с.

4. Выготский, Л.С. Психология развития ребенка. — М.: Смысл; Эксмо, 2019. — 512 с.
5. Гиллен, К. Инклюзивное образование: теория и практика. — М.: Логос, 2020. — 248 с.
6. Маслоу, А.Х. Мотивация и личность. — СПб.: Питер, 2019. — 352 с.
7. Обухова, Л.Ф. Возрастная психология: учебник. — М.: Юрайт, 2020. — 460 с.
8. Пиаже, Ж. Психология интеллекта. — СПб.: Питер, 2020. — 192 с.
9. Роджерс, К.Р. Становление личности: Взгляд на психотерапию. — М.: Эксмо, 2017. — 320 с.
10. Семаго, Н.Я., Семаго, М. М. Психология инклюзивного образования. — М.: АСОУ, 2018. — 384 с.
11. Хуторской, А.В. Педагогическая инноватика: учебное пособие. — М.: Академический проект, 2016. — 256 с.
12. Чикер, В.А. Психология развития личности: учебное пособие. — М.: Академия, 2015. — 271 с.
13. Эриксон, Э. Идентичность: юность и кризис. — М.: Флинта, 2020. - 288 с.
14. Юкселев, В. Н. Психолого-педагогические основы инклюзивного образования. — Казань: КФУ, 2021. — 312 с.

